XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi[1)] 2022 yil iyun oyida 3 435,1 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 2,7 foizga o‘sdi.

Yanvar – iyun oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sishi iqtisodiy faoliyat turlarining savdo, sohasida (157,2 foizga), axborot va aloqa sohasida (140,3 foizga), bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (132,5 foizga), kuzatildi.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 8359,7 ming so‘m (viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,0 marta ko‘p), tashish va saqlashda 5006,2 ming so‘m (161,7 foizga), axborot va aloqa sohasida 3954,7 ming so‘m (127,7 foizga), sanoatda sohasida 3724,4 ming so‘m (120,3 foizga) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022 yil yanvar-iyun)



[1)] *Bu yerda va keyingi o'rinlarda dastlabki ma'lumotlar, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, qayta hisoblangan.*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo’jalikligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

(ming so‘m)

	Yanvar-iyun		*Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz*	
	2021 yil	*2022 yil*	*2021 yil*	*2022 yil*
Jami viloyat bo‘yicha	**2 675,2**	**3 096,0**	**x**	**x**
shu jumladan:				
Sanoat	3 200,5	3 724,4	119,6	120,3
Qurilish	2 963,2	3 266,9	110,8	105,5
Savdo	2 063,8	3 244,8	77,1	104,8
Tashish va saqlash	4 131,4	5 006,2	154,4	161,7
Axborot va aloqa	2 819,1	3 954,7	105,4	127,7
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	6 307,8	8 359,7	235,8	270,0
Ta’lim	2 137,8	2 426,6	79,9	78,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko‘rsatish	2 274,6	2 400,0	85,0	77,5
Boshqa faoliyat turlari	2 609,3	3 244,4	97,5	104,8

Ta’lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 426,6 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 113,5 foizga o‘sdi.

Ta’lim sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini Viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 3311,1 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (136,5 foiz), Qorovulbozor tumanida 3041,3 ming so‘mni (125,3 foiz) va Kogon shahrida 2496,2 ming so‘mni (102,9 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Peshko‘ tumanida 1970,4 ming so‘mni (81,2 foiz), Shofirkon tumanida 1967,5 ming so‘mni (81,1 foiz) Vobkent tumanida 1825,4 ming so‘mni (75,2 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3724,4 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 116,4 foizga ko‘paydi.

Sanoat sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shofirkon tumanida 7598,4 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,0 marta), Qorovulbozor tumanida 5583,7 ming so‘mni (149,9 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Vobkent tumanida 1565,9 ming so‘mni (42,0 foiz) va Buxoro tumanida 1560,2 ming so‘mni (41,9 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3266,9 ming so‘mni, 2021 yilning mos davriga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olot tumanida 4826,9 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 147,8 foiz) bo‘lsa, Qorovulbozor tumani 3433,4 ming so‘mni (105,1 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Buxoro tumanida 2617,2 ming so‘mni (80,1 foiz), Buxoro shahrida 2491,3 ming so‘mni (76,3 foiz), Qorako‘l tumanida 2081,8 ming so‘mni (63,7 foiz) boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2400,0 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 105,5 foizni tashkil etdi.

Mazkur sohalardagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Peshko‘tumanida 2965,8 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 123,6 foiz), Qorovulbozor tumanida 2963,5 ming so‘mni (123,5 foiz), Kogon shahrida 2562,8 ming so‘mni (106,8 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Qorako‘l tumanida 2028,0 ming so‘mni (84,5 foiz), Vobkent tumanida 1970,7 ming so‘mni (82,1 foiz), Buxoro tumanida 1898,3 ming so‘mni (79,1 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8359,7 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 132,5 foizga o‘sdi.

O‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, eng yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 4404,8 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (142,3 foiz), Kogon shahrida 4404,8 ming so‘mni (142,3 foiz), Buxoro shahrida 3574,9 ming so‘mni (115,5 foiz) etgan bo‘lsa, Shofirkon tumanida 2333,7 ming so‘mni (75,4 foiz), Buxoro tumanida 2244,6 ming so‘mni (72,5 foiz), Vobkent tumanida 2105,9 ming so‘mni (68,0 foiz) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik ish haqining eng past ko‘rsatkichlari Buxoro (2244,6 ming so‘m) va Vobkent (2105,9 ming so‘m) tumanlarida kuzatildi. Bu tumanlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichlari viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan mos ravishda kam bo‘lgan.

Buxoro viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo’jalikligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)

(ming so‘m)

	Yanvar- iyun		*Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz*	
	2021 yil	*2022 yil*	*2021 yil*	*2022 yil*
Buxoro viloyati	**2 675,2**	**3 096,0**	**x**	**x**
Buxoro sh.	2 936,5	3 574,9	109,8	115,5
Kogon sh.	3 871,1	4 404,8	144,7	142,3
tumanlar				
Buxoro	2 364,6	2 244,6	88,4	72,5
Vobkent	1 814,9	2 105,9	67,8	68,0
Jondor	2 150,0	2 361,5	80,4	76,3
Kogon	2 379,0	2 403,7	88,9	77,6
Olot	2 167,4	2 668,7	81,0	86,2
Peshko‘	1 881,5	2 358,0	70,3	76,2
Romitan	2 334,7	3 263,7	87,3	105,4
Shofirkon	2034,2	2333,7	76,0	75,4
Qorako‘l	1 950,0	2 380,8	72,9	76,9
Qorovulbozor	4 040,8	4 404,8	151,0	142,3
G‘ijduvon	2 297,4	2 372,7	85,9	76,6